



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*  
\_\_\_\_\_ *ning*

*20\_\_-20\_\_-o'quv yili 3-sinflar*  
*uchun ona tili fanidan*

*“DURDONA TILIM” NOMLI*

**TO'GARAK**  
**HUJJATLARI**









# “TASDIQLAYMAN”

## MMIBDO‘ \_\_\_\_\_

20\_\_-20\_\_ o‘quv yili uchun tuzilgan “Durdona tilim” to‘garagining

### ISH REJASI

№	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	Nutq. Gap. So‘z			
2.	Matn			
3.	So‘zlar			
4.	Gaplar			
5.	Tovushlar va harflar			
6.	Unli va undosh tovushlar			
7.	O‘zbek alifbosi			
8.	Tutuq belgisi			
9.	Sh, ch, ng, harflar birikmalari			
10.	Jarangli va jarangsiz undoshlar			
11.	Talaffuzda tushib qoladigan undoshlar			
12.	Yonma-yon kelgan bir xil undoshlar			
13.	Gapning mahsadiga ko‘ra turlari			
14.	Darak gap			
15.	Darak gapda tinish belgilari			
16.	So‘roq gap			
17.	So‘roq gap haqida ma’lumot			
18.	So‘roq gaplarda tinish belgilari			
19.	So‘r gapning talaffuzi			
20.	Buyruq gap			
21.	His-hayajon gap			
22.	His-hayajon gaplarda tinish belgilarning qolanilishi			
23.	Gap bo‘laklari			
24.	Bosh bo‘laklar haqida ma’lumot			
25.	Bosh bo‘laklarning turlari			
26.	Kesim va ega			
27.	Ikkinchi darajali bo‘laklar			
28.	Ikkinchi darajali bo‘laklarning bosh turlari			
29.	Gapda so‘zlarning bog‘lanishi			
30.	Asos va asosdosh so‘zlar			
31.	So‘z yasovchi qo‘shimchalar			
32.	So‘z yasovchi qo‘shimchalarning qo‘llanishi			
33.	So‘z yasovchi qo‘shimchalar, yasovchi qo‘shimchalarning asosdosh so‘zlar hosil qilishi			
34.	So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalar			
35.	So‘z turkumlari			
36.	Ot haqida ma’lumot			
37.	Otlarning yasalishi			

38.	Mashqlar bilan ishlash			
39.	Kim?, Nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar			
40.	Hayvon nomlarini bildirgan otlar			
41.	Kim?, Nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar			
42.	Otlarda birlik va ko'plik			
43.	Ko'plikdagi otlarning imlosi			
44.	Birlik va ko'plikdagi otlarni farqlash			
45.	Mashqlar bilan ishlash			
46.	Rasm asosida matn yaratish			
47.	Ot yasovchi qo'shimchalar			
48.	Ot yasovchi qo'shimchalarning turlari			
49.	Yasama otlarning imlosi			
50.	Sifat haqida ma'lumot			
51.	Sifatning shaxs va narsalar belgisini bildirish			
52.	Sifatning qanday, qanaqa so'roqlariga javob berish			
53.	Sifatning otga bog'lanishi			
54.	Sifat yasovchi qo'shimchalar			
55.	Yasama sifatlar			
56.	Sifatlarga so'roq berish			
57.	Qarama-qarshi ma'noli sifatlar			
58.	Sifat va otlarni aniqlash			
59.	Zid ma'noli so'zlar			
60.	Son haqida ma'lumot			
61.	Sonning turlari			
62.	Son so'zlarning imlosi			
63.	Mashqlar bilan ishlash			
64.	Fe'l haqida ma'lumot			
65.	Fe'lning so'roqlari			
66.	Mashqlar bilan ishlash			
67.	Yaqin ma'noli fe'llar tanlash mashqi			
68.	Qarama-qarshi ma'noli fe'llar			

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_ -yil. Sinflar: \_\_\_\_\_. To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

## Mavzu: Nutq. Gap. So‘z

**Mashg‘ulotning maqsadi: ta‘limiy:** O‘quvchilarning nutq, nutqning tuzilishi. Nutq va uning shakllari. Og‘zaki nutq, Yozma nutqni o‘stirish. Matn. Matn nutqning yozma shakli ekanligi. Matnning tuzilishi. Matnning gaplardan tuzilishi, matnga sarlavha qo‘yilishi. o‘quvchilar faolligini oshirish, ularning qiziqish va intilishlarini rivojlantirish, husnixat malakalarini takomillashtirish.

**Tarbiyaviy:** barkamol avlodga xos odoblilik san'ati va madaniyatini o‘rgatish; o‘zbek xalqining milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarini amalda qo‘llash malakalarini shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi:** Og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish. Mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

**O‘quv jarayoniga oid kompetensiya:** o‘zini nazorat qila olish; sinfdagi jihozlar, o‘quv qurollarini asrab-avaylash; maktabda, oilada va turar joylarida bo‘layotgan jarayonlarda ishtrok etish. ehtiyoji uchun kerak bo‘lgan narsalardan (o‘quv qurollari, kiyim-kechagi) tejab foydalanish. FK-1: rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi; nutq jarayonida o‘zlashtirgan yangi so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi; o‘zbek tilidagi nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qila oladi; talaffuz me‘yorlariga rioya qila oladi;

**Mashg‘ulotning turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Mashg‘ulotning metodi :** aqliy hujum, suhbat, savol-javob, ta‘limiy o‘yini.

**Mashg‘ulotning jihozi:** Mavzuga oid rasmlar, ona tili mashg‘ulotligi

**Mashg‘ulotning borishi.**



**I. Tashkiliy qism :** Salomlashish , davomatni aniqlash, navbatchining axboroti.

Sinf tozaligini nazorat qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarligini nazorat qilish.

**II. O‘tgan mavzuni so‘rab baholash.** O‘tilgan mavzuda berilgan uyga vazifasini tekshirish. Uyga berilgan mashq o‘qitiladi . Uy vazifasi tekshirilayotganda doim o‘quvchilarga "Qaysi so‘zda yoki shu so‘zning qayerida imlo xato qilib qo‘yish mumkin?" degan savol berish, o‘sha so‘zning imlosi ustida ishlash lozim.

O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

— Ega deb nimaga aytiladi?

— Kesim deb nimaga aytiladi?

— Ega va kesim gapning qanday bo‘lagi?

— Ular birgalikda gapning nimasini bildiradi?

O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini quyidagicha umumlashtiradi:

Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan bo‘lak ega deb ataladi. Gapdagi ega haqida nima deyilganini bildirgan bo‘lak **kesim** deyiladi. Ega bilan kesim gapning bosh bo‘laklaridir. Ular birgalikda gapning asosiy mazmunini bildiradi.

**III. Yangi mavzuning bayoni: 1-mashq.** Rasmni kuzating.

O‘quvchilar mashg‘ulotlikdagi rasmni diqqat bilan kuzatadilar, rasmdagi narsa va shaxslarni navbat bilan aytadilar. O‘qituvchi yoki o‘quvchilar galma-gal har bir aytilgan so‘zni doskaga yozib boradilar.



Masalan: daraxt, barg, bino, o'quvchilar, gul, papka, qo'n-g'iroq, qiz, ... Ana shu so'zlar ishtirokida gaplar tuziladi.

Masalan: Xolida — a'lochi qiz. Birinchi qo'ng'iroqni chalish huquqi unga berildi.

Oltin kuz keldi, daraxt barglari sarg'aydi.

Tuzilgan gaplar tartibga keltirilib, matn tuziladi. Matnga sar-lavha topib qo'yiladi. Masalan: „Bilimlar kuni“ yoki „Maktabim — qadrdonim“ kabi sarlavha ostida matn yoziladi.



Oltin kuz fasli keldi. Daraxtlarning barglari sarg'ayib, to'kila boshladi. O'quvchilar bir qo'llarida gul, bir qo'llarida sumka bilan qadrdon maktablariga keldilar.

O'qituvchi o'quvchilarni mehr bilan kutib oldi. Mana, qo'ng'iroq ham chalindi.

Qo'ng'iroqni chalish huquqi a'lochi qiz Xolidaga berildi.

Mashg'ulotlikdagi **2- mashq** ustida ishlash.

*Qishlog'imida katta maktab bor. Men shu maktabda o'qiyman.*

*Maktabimiz bog' yaqinida joylashgan. Biz o'qishdan bo'sh paytlarimizda*

*bog'bonlarga yordam beramiz.*

Mashq matnidagi gaplar o'quvchilarga o'qitiladi. Mashqning shartiga ko'ra bir-biridan qanday ajratilganligi, gaplar nimalardan tuzilganligi aniqlanadi. O'quvchilar oxirgi gapni ko'chirib yoza-dilar va yozganlarini kitobdan tekshiradilar.

**IV. Yangi mavuni mustahkamlash;** Mashg'ulotlikdagi **3- mashq** ustida ishlash.

Mashqning topshirig'i o'qiladi. O'quvchilarning yozda qilgan ishlarini eslash, u haqda fikr yuritish,

fikrlarini umumlashtirishlari uchun vaqt beriladi. Fikrlar to'plab olingach, 2—3

o'quvchi ta'tildagi ishlari, eng qiziqarli voqea-hodisalar haqida so'zlab beradi.

Ijodiy diktant.

Ijodiy diktant uchun quyidagi so'zlar beriladi.

Yoz, ta'til, oromgoh, qishloq, dala, ish, yordam, mashg'ulot, kitob, ertak.

O'quvchilarga berilgan so'zlardan foydalanib, bog'lanishli gaplar tuzish topshiriladi.

**V. Mashg'ulot jarayonida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish va baholash.**

O'quvchilarning mashg'ulotdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko'ra o'qituvchi tomonidan baholab boriladi. Mashg'ulot yakunida umumiy baholar e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifa. 4-mashq.** O'qing. Matnda nechta gap bor? Matnga sarlavha toping va ko'chirib yozing.



Maktab MMIBDO' \_\_\_\_\_ sana \_\_\_\_\_ 20\_\_yil

Sana: “\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinflar: \_\_\_\_\_. To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Matn

**Mashg‘ulotning maqsadi: ta‘limiy:** O‘quvchilarning nutq, nutqning tuzilishi. Nutq va uning shakllari. Og‘zaki nutq, Yozma nutqni o‘stirish. Matn. Matn nutqning yozma shakli ekanligi. Matnning tuzilishi. Matnning gaplardan tuzilishi, matnga sarlavha qo‘yilishi. o‘quvchilar faolligini oshirish, ularning qiziqish va intilishlarini rivojlantirish, husnixat malakalarini takomillashtirish.

**Tarbiyaviy:** barkamol avlodga xos odoblilik san'ati va madaniyatini o‘rgatish; o‘zbek xalqining milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarini amalda qo‘llash malakalarini shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi:** Og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish. Mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

**O‘quv jarayoniga oid kompetensiya :** o‘zini nazorat qila olish; sinfdagi jihozlar, o‘quv qurollarini asrab-avaylash; maktabda, oilada va turar joylarida bo‘layotgan jarayonlarda ishtrok etish. ehtiyoji uchun kerak bo‘lgan narsalardan (o‘quv qurollari, kiyim-kechagi) tejab foydalanish. FK-1: rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi; nutq jarayonida o‘zlashtirgan yangi so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi; o‘zbek tilidagi nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qila oladi; talaffuz me‘yorlariga rioya qila oladi;

**Mashg‘ulotning turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Mashg‘ulotning metodi :** aqliy hujum, suhbat, savol-javob, ta‘limiy o‘yini.

**Mashg‘ulotning jihozi:** Mavzuga oid rasmlar, ona tili mashg‘ulotligi

**Mashg‘ulotning borishi.**

**I. Tashkiliy qism :** Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchining axboroti.

Sinf tozaligini nazorat qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarligini nazorat qilish.

**II. O‘tgan mavzuni so‘rab baholash.** Uyga berilgan vazifani tekshirish va baholash. O‘tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o‘tkazish.

**III. Yangi mavzuning bayoni: 8- mashq.** Chap va o‘ng tomondagi gaplarni qiyoslang.

Qaysi ustunda alohida – alohida gaplar, qaysi ustunda matn berilgan.

1- ustunda alohida-alohida gaplar berilgan.

*O‘quvchilar sayohatga boradilar. 2. Biz kitobni sevami. 3. Men yogi ta‘tilda qishloqqa bordim. 4. Miro Ulug‘bek buyuk astronom bo‘lgan.*

2- ustunda matn berilgan.

*Osmonda oq-qora bulutlar ko‘rinadi. Daraxtlarning barglari sariq va qizg‘ish rangda tovlanadi.*


*Shoxdan shoxga uchib yurgan sayroqi qushlar ko‘rinmaydi.*

**Topshiriq;** Matnga sarlavha toping va ko‘chiring.

**Matn**

nutqning yozma shakli.  
mazmun jihatdan bog‘langan gaplar.  
gaplardan tuziladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash; 9- mashq.** Rasmni kuzating. Bolalar nima ish qilayotganlari haqida mazmunan bir-biriga bog‘langan gaplar tuzing va yozing.



**Dam olish daqiqasi:** hamma o‘quvchilar partadan chiqib, tik turadilar. O‘qituvchi qo‘lida koptokni tutib turgan holda topishmoq aytib, koptokni irg‘itadi. Koptokni ilib olgan o‘quvchi topishmoqning javobini aytib, boshqa bolaga irg‘itadi. O‘yin shu tariqa davom etadi. Topishmoqning javobini aytolmagan bola uzr aytib, boshqa bolaga irg‘itishi kerak.

O‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:

**Topshiriq;** Matn nima? Matn nimalardan tuziladi? Matn nimaning yozma shakli? Matnga nima uchun sarlavha qo‘yish mumkin?

**Taqdimot:** O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini umumlashtiradi:

— Matn — mazmun jihatdan bog‘langan gaplar. Matn — nutqning yozma shakli, matnga sarlavha topiladi.

**V. Mashg‘ulot jarayonida faol qatnashgan o‘quvchilarni rag‘batlantirish va baholash.** O‘quvchilarning mashg‘ulotdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko‘ra o‘qituvchi tomonidan baholab boriladi. Mashg‘ulot yakunida umumiy baholar e‘lon qilinadi va faol, bilimdon o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

**VI.Uyga vazifa. 7 -mashq.** Topishmoqlarni o‘qing. Javoblarini ayting.

Maktab MMIBDO‘ \_\_\_\_\_ sana \_\_\_\_\_ 20\_\_yil

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinflar: \_\_\_\_\_. To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

### Mavzu: So‘zlar

**Mashg‘ulotning maqsadi: ta‘limiy:** Matndagi gaplarning mazmun jihatdan bog‘lanishi, so‘zlarning ma‘no turlari, ularning bog‘lanishi. Matnning gaplardan tuzilishi, matnga sarlavha qo‘yilishi. o‘quvchilar faolligini oshirish, ularning qiziqish va intilishlarini rivojlantirish, husnixat malakalarini takomillashtirish.

**Tarbiyaviy:** barkamol avlodga xos odoblilik san‘ati va madaniyatini o‘rgatish; o‘zbek xalqining milliy urf-odat, an‘ana va qadriyatlarini amalda qo‘llash malakalarini shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi:** Og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish. Mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

**O‘quv jarayoniga oid kompetensiya :** o‘zini nazorat qila olish; sinfdagi jihozlar, o‘quv qurollarini asrab-avaylash; maktabda, oilada va turar joylarida bo‘layotgan jarayonlarda ishtirok etish. ehtiyoji uchun kerak bo‘lgan narsalardan (o‘quv qurollari, kiyim-kechagi) tejab foydalanish. FK-1: rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi; nutq jarayonida o‘zlashtirgan yangi so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay oladi; o‘zbek tilidagi nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qila oladi; talaffuz me‘yorlariga rioya qila oladi;

**Mashg‘ulotning turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Mashg‘ulotning metodi :** aqliy hujum, suhbat, savol-javob, ta‘limiy o‘yini.

**Mashg‘ulotning jihozi:** Mavzuga oid rasmlar, ona tili mashg‘ulotligi

**Mashg‘ulotning borishi.**

**I. Tashkiliy qism :** Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchining axboroti.

Sinf tozaligini nazorat qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarligini nazorat qilish.

**II. O‘tgan mavzuni so‘rab baholash.** Uyg‘ berilgan vazifani tekshirish va baholash. O‘tilgan mavzular yuasidan savol-javob o‘tkazish.

Lug‘at diktant.

Quvonch, daryo, yaproq, dovyurak, zarg‘aldoq, kitobxon, shabada.

-chi, -li qo‘shimchalarini qo‘shib yangi so‘zlar yasang. Ularning qanday so‘roqlarga javob bo‘lishini, ayting.

sut — sutchi

nur — nurli

hashar — ...

ishonch — ...

bo‘yoq — ...

intizom — ...

hoiva — ...

odob — ...

kashta — ...

qor — ...

**III. Yangi mavzuning bayoni: 14- mashq.** Rasmni kuzating. Unda yilning qaysi qaysi fasli tasvirlanganini yozing. Hikoyangizda ma‘nosiga ko‘ra qanday so‘zlardan foydalandingiz?



**So‘zlar** kim?, nima?, qanday?, qanaqa?, nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi?, nima qilmoqchi? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.

Maktab, yashil, boshlayapti, ishchi, yozdi, keng, vazifa, oppoq, o‘qiyapti, soat, chizadi, xirmon, ishlaydi, gulzor, chiroyli.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash; Topshiriq:** 1-ustunga shaxs-narsa nomini bildirgan so‘zlarni, 2 shaxs-narsa belgisini ifodalagan so‘zlarni, 3- ustunga narsaning harakatini bildirgan so‘zlarni yozing.

**Taqdimot;** O‘quvchilar topshiriqni mustaqil bajaradilar. Ular ishini nazorat qilish.

Ishchi

yashil

boshlayapti,

Maktab,

keng,

yozdi,

Vazifa,

oppoq,

o‘qiyapti,

Soat

chiroyli,

ishlaydi

Xirmon,

chizadi.

**V. Mashg‘ulot jarayonida faol qatnashgan o‘quvchilarni rag‘batlantirish va baholash.**

O‘quvchilarning mashg‘ulotdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko‘ra o‘qituvchi tomonidan baholab boriladi. Mashg‘ulot yakunida umumiy baholar e‘lon qilinadi va faol, bilimdon o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyg‘ vazifa. 16-mashq.** So‘roq so‘zlar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib o‘qing. Ular nimani ifodalashini ayting.

*vab-saytimiz: Zokirjon.com*  
*Hujjat Word variantda beriladi.*

*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi*

**Ona tili fanidan 3-sinf o'quvchilarga 68 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**




**Narxi: 30 ming so'm**

**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyeu Zokirjon**



## **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.